

RANGTASVIRDA SIRK: JAHON RANGTASVIRI VA UNI TASVIRLASH METODIKASI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i01.041>

Karim Avaz-o'g'li Umirov
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Annotatsiya: Mavzu jahon tasviriy san'atida sirk obrazini o'rganishga bag'ishlangan - qadimgi dunyodan to zamonaviy san'atgacha. Ishda sirk motivlarining evolyutsiyasi ochib berilgan, Dega, Tuluz-Lotrek, Pikasso, Shagal va L.Nayt kabi asosiy rassomlar, shuningdek, sirkning badiiy metafora sifatidagi talqini tahlil qilingan. Sirk sahnalarini tasvirlash uslubiga alohida e'tibor qaratildi: harakat, yorug'lik, ifoda, kompozitsion dinamika va san'atkorlarning xarakterlarini ifodalash. Material san'at yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan bo'lib, sirk syujetlari ustida ishlash bo'yicha amaliy tavsiyalar, mashqlar va yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: rangtasvirda sirk, masxaraboz, akrobat, arena, sirkning badiiy obrazlari, jahon san'ati, Pikasso, Dega, Shagal, sirk personajlari, rasm chizish metodikasi, harakat dinamikasi, kompozitsiya, rangtasvirda yorug'lik, o'quv-uslubiy qo'llanma

THE CIRCUS IN PAINTING: WORLD ART AND THE METHODOLOGY OF ITS DEPICTION

Karim Avaz-o'g'li Umirov
Kimyo International University in Tashkent

Abstract: This topic is devoted to the study of the image of the circus in world painting - from ancient times to contemporary art. The paper reveals the evolution of circus motifs and analyzes the works of key artists such as Degas, Toulouse-Lautrec, Picasso, Chagall, and Calder, as well as the understanding of the circus as an artistic metaphor. Special attention is given to the methodology of depicting circus scenes: the rendering of movement, light, expression, compositional dynamics, and the characters of performers. The material is intended for students of fine arts and offers practical recommendations, exercises, and approaches to working with circus themes.

Keywords: circus in painting, clown, acrobat, arena, artistic images of the circus, world art, Picasso, Degas, Chagall, circus characters, drawing methodology, dynamics of movement, composition, light in painting, educational and methodological guide

Sirk - tomosha san'atining bir turi sanaladi va san'at tarixida bu mavzuga ko'p murojaat etiladi. Odatda sirk mavzusi ko'p figurali kompozitsiyadan tashkil topib, arenadagi tomoshalar, sahna ortidagi holat, tomoshabinlar hayrati, sirk artistlari hayoti yoki hayvonlarni ifodalashni maqsad qiladi. Odatda sirk ikki ko'rinishda bo'ladi: muayyan shaharda qaror topgan va o'z binosiga ega doimiy sirk; doimiy ko'chib yuruvchi sayyor sirk. Rassomlarni ko'p hollarda sirkdagi qiziqarli shou-dasturlar, fokus, pantomima, xavfli tomoshalar, aql bovar qilmas tryuklar, akrobatika, yovvoyi hayvonlar va uy hayvonlari tomoshalari qiziqtirgan. Har yili aprelning uchinchi shanba kuni Xalqaro sirk kuni sanaladi va butun dunyo bo'ylab keng nishonlanadi. Jo'shqin tuyg'ular, dramatik taqdirlar, quvonchli lahzalar, sirk artistlarining turli holati, rang-baranglik teatral muhit rassomlar e'tiborini tortadi.



Buqa bilan tomosha ko'rsatayotgan akrobatlar. Knoss saroyidagi devoriy surat



Ohaktoshga ishlangan misrlik akrobat ayol tasviri. Turin muzeyi. XIX sulola

Sirkning tarixi teatr kabi qadimgi davrlardan boshlanadi. Insoniyat qadimdan turli shakldagi tomoshalarga moyil bo'lgan. Masalan, qadimgi Yunonistonda g'ildirakli jang aravalar poygasi o'tkazilgan, Xitoyda «inson-ilon», Misrda yovvoyi hayvonlarni o'rgatuvchilar bo'lgan. Vaqt o'tib Rimda barcha tomoshalarni birlashtiruvchi me'moriy makon ichidagi tomosha g'oyasi paydo bo'ladi. Akrobatlar namoyishi va otliq aravalar poygasi uchun maxsus dumaloq arenali qurilmalar barpo etiladi.

Antik davrga oid devoriy surat va amforalarda akrobatika, jonglyorlik, atletika, ekvilibratika kabi ko'plab sahnalarni ko'rish mumkin. Shuningdek, papirusdagi qo'lyozmalarda hattoki sirk aktyorlari tomonidan bajarilayotgan tryuklarning chizmalarini uchratish mumkin. Qadimgi Misr kohinlari turli usullar bilan "mo'jizaviy" tomoshalar uyushtirishgan, bugungi kunda biz ularni illyuziya deb ataymiz. Masalan, ular ibodatxona tomi ostida tomoshabinning ko'z o'ngida nogahon ma'bud haykalini bor qilishar yoki qurbongohda muqaddas olovni hosil qilishardi. Bu kabi tomoshalarning sir-sinoati faqatgina o'z vorislariga aytilgan. Eramizdan avvalgi 2900 - 2600-yillar bilan qayd etilgan qadimgi yunon papirusida firavn Xeops va uning ko'zboylog'ichi haqida so'z boradi. Yozilishicha, u o'zining mahorati bilan g'ozni boshidan "judo etib", so'ng uni qayta "o'sib chiqishiga" majbur qilishi mumkin edi. Eramizdan avvalgi 3000-ming yillikka mansub qabrlardan esa teridan yasalgan va ichi o't bilan to'ldirilgan jongler koptogi topilgan.

Katta shaharlar va kichik qishloqlarning hayotida sirk bir xil yorqin voqea bo'lgan. Yosh bolalardan tortib, to keksalarga qadar artist va masxarabozlarning tomoshalari birdek xush yoqqan. Sharik va stakanlarni mahorat bilan almashtirib, chaqqonligi bilan "mo'jiza" ko'rsatayotgan ko'zboylog'ichni Iyeronim Bosx o'zining "Fokuschi" kartinasida ko'rsatgan.



Iyeronim Bosx. Fokuschi. 15-asr.

Zamonaviy tipdagi sirk san'ati 18-asrda Fransiyada paydo bo'lib, uning asoschisi ota va o'g'il Astleylar sanaladi. Italiyalik Frankonilar ularning ishlarini davom ettirib, tomosha dasturiga pantomima, keyinchalik esa turli hayvonlarning o'zaro kurashini kiritishgan. Vaqt o'tib sirk tomoshalarining mashhurligi Parij chegaralaridan chiqadi va tez orada Yevropaning barcha xududiga tarqaydi. 19-asr oxiriga kelib yovvoyi hayvon o'rgatuvchilari tomoshalari xalq orasida katta shuhrat qozongan edi. Bugungi kunga qadar bu mavzu ko'plab ijodkorlarni qiziqtirib keladi.

San'at tarixidagi ko'plab mashhur rassomlar sirkning rang-barang hayotidan unikal lavhalarni muhrlashga intilishgan. Masalan, Pol Gyustav Dorening «Darbadar artistlar» («Akrobatlar oilasi») kartinasi syujetida sirk artistlarining fojeaviy taqdiri haqida hikoya qilinadi. Kartinada biz artistlar oilasini ko'ramiz. Kartinada ko'rinib turibdiki, tomosha vaqtida ota-onasiga yordam berayotgan bolakay qattiq shikast topgan. Farzandi dardidan ezilayotgan ona uni joniga ozor beramgan holda bag'riga bosmoqda, ota esa bo'lib o'tgan voqeaning dahshatini anglagan holda, o'zining ilojsizligidan qaddi bukilgan holatda tasvirlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, rassomning o'zi shu voqeaga bevosita guvoh bo'lgan. U bu voqeadan shu qadar ta'sirlangan ediki, akrobatlar oilasi mavzusiga 20 yildan so'ng qayta murojaat etib, umuman o'zgacha ranglar majmuida ishlagan.



Pol Gyustav Dore. Darbadar artistlar (Akrobatlar oilasi)

Frits van der Vennning «Qish. Darbadar artistlar» kartinasining syujeti ham qiziqarlidir. Nemis rassomi unda ko'ngilxushlik va hayratga to'la sirk hayotining orqa tomoniga guvoh bo'lamiz. Sayoh sirkning izg'irin qish paytidagi og'ir hayoti, ko'chmanchilikning mashaqqatli kunlari haqida so'zlaydi bu asar. Izg'irin shamol, qor bosgan yo'llar, charchagan odamlar va otlar - bularning barchasi ko'chmanchi artistlarning uqubatlarini aks ettiradi.

Ottokar Valterning «Sirkda» kartinasida parda ortidagi jarayon aks etgan. Har bir artist o'zining namoyish vaqtini sabrsizlik va hayajon bilan kutib, tomoshaga tayyorgarlik ko'rmoqda yoki o'zaro suhbat qurishmoqda. Go'zal liboslardagi ba'zi qahramonlar hayajonda, ba'zilar esa aksincha, o'zining mahorati bilan tezroq tomoshabinlarni maftun etib, sirk arenasining sehrli olamiga oshiqmoqda.



Ottokar Valter. Sirkda



Pablo Pikasso. Shar ustidagi qiz. 1905

XX-asr tasviriy san'atida sirk mavzusi ko'plab rassomlarni o'ziga rom etgan. Sirk mavzusi mashhur primitivist rassom Mark Shagalning ishlarida ham ko'p uchraydi. U bir qator eskiz va matolarni sirk mavzusiga bag'ishlagan. Bu ishlarda masxaraboz, akrobat, sirk hayvonlari, chavandoz erkak va ayollarni uchratish mumkin. Ularda sirk - bu bo'yoq va harakatlar bo'ronidir. Masalan, M.Shagalning «Sirk tulpori» asarida bunga guvoh bo'lish mumkin. Arg'imchoq kabi boshni aylantiruvchi turli tomoshalar ishlanishi jihatidan bolalar ijodiga o'xshaydi. Muallif realizmga intilmasa-da, sirkdagi eng asosiy xususiyat bo'lgan qaytarilmas bayram muhiti va kayfiyatini taqdim etishga muvaffaq bo'ladi. Pablo Pikassoning havorang va pushti rang davri qahramonlari asosan ko'chmanchi artistlarning dramatik taqdiri haqida hikoya qiladi ("Shar ustidagi qiz", "Akrobatlar it bilan", "Akrobatlar oilasi"). "Atlet" kartinasida Pikassoning kubizmdagi izlanishlari namoyon bo'ladi. Rassom atletning yuzi, tanasi va mushaklarini geometrik shakllar bilan yasaydi. "Men doimo masxaraboz, akrobatlar va aktyorlarga fojeyiy taqdirlar sifatida qarayman, - deb yozadi Mark Shagal. Ular menga diniy kartinalardagi qahramonlarni eslatib yuboradi". "Katta sirk" deb atalgan so'nggi ishlaridan birida rassom olamni manej doirasi atrofida qurilgan sirk tomoshasi sifatida tasvirlagan. Pastda Eyfel minorasi ko'rinib turgan shahar manzarasi namoyon bo'ladi. Tepada esa tomoshabinlar bilan to'lgan o'rindiqlar qavati aks etgan. Manejda

sevishganlar, gul ko'targan masxarabozlar, uchatyogna otlar va insonlar, havoda muallaq turgancha ijro etayotgan orkestr olami tasvirlanib, bu olamda barcha narsa fantastik va haqqoniy.

Darbadar artist, dorboz, atlet, akrobat va jonglyorlar bilan bir qatorda ko'plab asarlarja hayvon o'rgatuvchilarga rassomlar tomonidan qiziqish bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bu kabi mavzular ehtimol jonzot va inson orasida o'rnatilgan munosabatlarni ifodalash, ularning tanasi va harakatlari go'zalligi, garmoniyasini tasvirlash maqsadida ijodkorlarni jalb etgan.



Pol Fridrix Meyerxaym (1842-1915).
Rashkchi urg'ochi sher. 1885-1890-yillar



Pol Fridrix Meyerxaym (1842-1915).
Hayvon o'rgatuvchi

Rus san'atida ham sirk mavzusiga qo'l urgan bir qator rassomlar nomini keltirib o'tish mumkin: A.Benua, S.Sudeykin, A.Shevchenko, S.Dimshits-Tolstaya, I.Puni, A.Yakovlev, V.Shuxayev, M.Shemyakin, A.Agabekov, N.Nesterova, K.Simun, I.Tarasyuk va boshqalar.

Sirk mavzusida foreskiz ishlash bosqichi. Sirk mavzusida kartina yaratishdan avval bo'lajak ishning aniq g'oyasini tasavvur qilib olish darkor. Aynan g'oyadan maqsadga olib boruvchi vazifalar paydo bo'ladi. Birlamchi eksiz ishlashda yosh rassomlar yo'lga qo'yuvchi bir nechta xatolarni keltirib o'tish joiz. Avvalombor, foreskizni kartinaning mo'jaz, kichik o'lchamli kopiyasiga aylantirmaslik kerak. Foreskiz ustida ishlash jarayonida naturaning nur-soya o'yinlarini minimumga olib borib, katta yorug'lik va soyalar bilan kifoyalanish hamda yarimtonlarga deyarli qo'l urmaslik lozim. Kompozitsiyada eng asosiy, kerakli va ahamiyatli bo'lgan katta hajmlarni qidirish kerak. Shu bilan birga, eskiz ustidagi ish jarayonida hosil bo'luvchi rang dog'lari namunaviy bo'lsa-da, ularga alohida ahamiyat qaratish kerak bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, talaba tasvirlanayotgan buyumlar nisbati, ularning o'zaro muvofiqligi va masshtabi haqida fikrlashi darkor.

Foreskiz bajarish jarayonida har doim ham asosiy vazifa qo'yilmasligi mumkin. Asosiy masalani odatda o'qituvchi belgilab beradi, ammo har bir o'quvchi foreskiz yaratish jarayonida mavzudan kelib chiqqan holda (masalan, sirk, teatr, balet va h.k.) o'z oldiga alohida vazifa qo'yishi mumkin. Agar vazifa aniq qo'yilmagan bo'lsa o'quvchilarda egizak-eskizlar chiqishi ehtimoli katta bo'ladi. Bu esa topilgan yangi

yechimlarni bekor bo'lishiga va o'quvchining mavzuga qiziqishi yo'qolishiga sabab bo'ladi.



Xosip Kusaks. Arlekin. 1884.



Per Ogyust Renuar. Sirkdagi masxaraboz



Laura Nayt. Masxaraboz



Laura Nayt.
Uchta Masharaboz. 1930. ⁴⁰

Ba'zan eskizlar ustidagi ish jarayoni o'z holicha bo'lishi mumkin, ya'ni izlanishlar bo'lar va o'ziga xos yechimlar topilardi. Katta kartina ustida ishlashga o'tilganda avvalgi barcha eskiz va qoramalar negadur e'tibordan tushib qoladi. Vaqt va quvvat sarflangan eksizlar asosiy ishda amaliy qo'llanilmaydi. Shu sababli, dastlabki eskizlar ustida ishlash vaqtida bu kabi holatlarga tushmaslik uchun quyidagilarga ahamiyat qaratish kerak bo'ladi. Birinchidan: foreskiz ustida ishlash jarayonida naturadan olingan eng birinchi taassurotni muxrlashga harakat qilish kerak. Kompozitsiyada qomatlarni alohida emas, balki uzviy aloqadorlikda yaxlit joylashtirish joiz. Bu jarayonda chizmatasvirga emas, balki rang bilan belgilangan shakllarga murojaat qilish kerak. Kompozitsiya etyudi ustasi, mashhur rus rassomi Konstantin Korovin bu borada shunday degan: «Chizmatasvir yo'q. Faqat rang orqali ifodalangan shakl mavjud». Komponovkani nafaqat rang bilan, balki rang tusi bilan ham bajarish kerak. Dastlabki eskizlarni boshqa ranglarni qo'llamagan holda oq-qora bo'yoqlarda bajarish avzal. Bu eskizda kerakli bo'lgan tus munosabatlarini darrov

ko'rishga imkon beradi. To'g'ri topilgan ton buyumlarga jismoniy ishonchlilikni hosil qiladi. Umuman olganda, oq-qora eskiz kuchli va to'g'ri nisbatlardagi tusni topishga imkon beradi. Bu borada mashhur simbolist rassom Mixaila Vrubelning «Marvarid» kartinasini misol qilish mumkin. Rassomning so'zlariga ko'ra u kartinani rangda bajarmasligi ham mumkin edi, chunki sadafsimon chig'anoqning shul'asi va moddiyligiga ko'mir bilan chizilgan oq-qora eskiz variantida erishib bo'lingandi. Fransuz rassomi Kamil Koroning metodikasi ham bu borada o'rnak bo'la oladi. Rassom dastlab ton ustida ish olib boradi, tasvirga chuqurlik, yumshoqlik va ifodaviylik beruvchi eng nozik ton nyuanslariga erishishga intiladi. So'ng esa, o'zining so'zlariga ko'ra uning huzuriga «rang mehmondek tashrif buyuradi».

Sirk tomoshalari deyarli barchaga teng manzur bo'ladi va yuqorida tahlil etilganidek garchi murakkab kompozitsiyani talab etsa-da, bu mavzuga ko'plab rassomlar ba'zan fojeaviy, dramatik, ba'zan esa quvonch va hayajonga to'la bo'yoqlar bayramidan iborat asarlar yaratishga urinishadi. Sirk tomoshalari va artistlari hayotiga oid kartina yaratishda bir nechta mavzularni amalga oshirish mumkin.

Hayvonlar ishtirokida yoritilgan sirk mavzusi. Baland gumbaz bilan yopilgan dumaloq tarxli inshoot mutloq fantastik bo'lgan olamga tomoshabinni olib kiradi. Bu yerda kulgili qo'lga o'rgatilgan hayvonlar, yuzlari bilan bo'yalgan g'ayrioddiy kostyumlardagi insonlar, xavfli o'yinlar bajarayotgan artistlar va bolalardek sodda bo'lgan masxarabozlarni uchratish mumkin. Bu kabi murakkab va rang-barang olamdagi detallarga boy mavzuni ifodalash uchun rassom sirkni bosqichma-bosqich, har bir qismini alohida anglab borishi zarur. Aynan shundagina, dastlabki qo'rquv yo'qolib, sekin-asta kichik-kichik sahnalardan iborat kompozitsiyalar paydo bo'ladi.

Hayvonlar bilan ifodalangan sirk mavzusini yoritishda bu jarayonni yaxshilab kuzatish kerak bo'ladi. Masalan, markazda maymun turli tryuklar bajarmoqda, uning atrofida esa fil yoki tyulen o'zining shohona dasturini namoyish etmoqda. Demak, kompozitsiyaning markazi koptok ushlagan mo'jaz libos kiyib olgan maymuncha. Uning harakatlari va qiyofasini yumshoq chiziqlar bilan muxrlashga harakat qilinadi. Bu jarayonda detallarga katta ahamiyat berilmaydi. Dastlab bosh, so'ng tanasi, qo'l va oyoqlari tasvirlanadi. Eskizni maymunchaning konussimon qalpoqchasi, jonglyorlik koptokchalari, qornidagi oqish qismi va uzun qayrilgan dumi bilan yakunlaymiz. Uning o'ng tomoniga tyulen begilanadi. Dastlab, dumaloq taglikni chizib olamiz va zig-zag naqsh bilan yengil bezak beriladi. So'ng, taglik ustida bo'ynini cho'zib turgan va burnida katta koptokni ushlab turgan tyulen shaklini chizib olinadi. Bu hayvonning tanasini juda sodda chizgilar bilan belgilab olish mumkin. Agar maneжда fil bo'lsa uning chizmatasvirini tushirib olish mushkul ish emas. Mayda narsalarga berilmasdan filning oval tanasini, qalin va baquvvat oyoqlarini va ajoyib xartumini belgilab olinadi. Uning xartumiga ham katta koptokni o'rnatish mumkin. Filning bel qismida rangdor

yopinchiq hamda xartum va quloqlaridagi taxlamlarni unutmaslik lozim. Shu ishlar bajarilgandan so'ng old plan tayyor bo'ladi.



Ikkinchi bosqich asosiy vazifaga qaratiladi. Hayvon artistlar orqasida me'moriy makonni hosil qilish kerak. Avval gumbazni devordan ajratib turuvchi yarimoval belgilab olinadi. Mazkur egilgan chiziq bo'ylab pastga qarab ko'rish nuqtasiga ko'ra inshoot devorini (tomoshabinlarga to'la o'rindiqlik, agar bu chodir-sirkda bo'layotgan bo'lsa osma devorlar) tasvirlab olinadi. Gumbaz osti makoniga devor va shiftga mahkam tortilgan kanat-arqonlarni qo'shamiz. Agar, kompozitsiyada bo'shliqlar hosil bo'lsa ularni sirk tomoshasiga tegishli bo'lgan biror bir detallar bilan to'ldiramiz. Shu tarzda ajoyib hayvonlar ishtirokidagi ajoyib kompozitsiya deyarli tayyor bo'ladi. Endi rang berishga o'tamiz va bu jarayon eng qiziqarli bosqich sanaladi. Bunda xayolotni ishga solish, istalgan ranglarni o'zaro uyg'unlikda qo'llash mumkin. Chunki sirkda deyarli barcha ranglarni uchratish mumkin. Havorang fil yoki malla rang maymuncha - hech qanday cheklov mavjud emas. Bo'yoqlar qanchalik yorqin va rang-barang bo'lsa, sirkdagi tomosha lavhasi shu qadar quvonchbahsh bo'ladi. Bo'yash jarayonida muhim sanalgan mayda detallarni ham belgilab borish mumkin - kirish eshigi, pardalar, bayroqlar, naqsh bezaklari va b. Ko'proq ifodaviylik berish maqsadida bu kabi detallarga meyor darajada e'tibor qaratish muhim sanaladi. Hayvonlar bilan ifodalangan sirk lavhasini boshqa jonzoqlar dasturi bilan xuddi shu bosqichlar asosida ishlash mumkin.

Sirk mavzusida ishlash jarayonida talabada quyidagi malaka ko'nikmalari paydo bo'ladi:

- hayvon va insonlarni harakatda, xotira asosida yoki tasavvurdan chiza olish malakasi rivojlanadi;
- ko'p figurali va yirik jonzoqlar tasviririni qog'ozda joylashtirish mahorati paydo bo'ladi;
- atrof-muhitga nisbatan estetik munosabati shakllanadi, hayotdan zavqlanish va zavq ulashish ko'nikmasi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Головин Г. Н. Основы композиции в изобразительном искусстве. М.: Искусство, 1990.

2. John Richardson. Picasso: The Early Years (Blue and Rose Period). Knopf, 1991.
3. Бамм П. Человек в движении: анатомия и пластика. СПб.: 4ART, 2014.
4. Janine Chasseguet-Smirgel. The Body in the Text: Circus Body in Art. Routledge, 2015.
5. Артемонова И. А. Методика преподавания рисунка в художественных учебных заведениях. М.: Просвещение, 2016.